

MUSTAQILLIK

Milliy o'zlikni anglash va g'urur bayrami

Umumxalq bayrami haqida qo'llanma

SUV SOHASIDA BARQAROR RIVOJLANISH MARKAZI

TOSHKENT 2026-yil

MUSTAQILLIK BAYRAMI – MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH KUNI



O‘zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuni har yili 1-sentabrda butun mamlakat bo‘ylab keng nishonlanadi. 2026-yilda Mustaqillikning 35 yilligi ham har yilgidanda keng miqyosda katta tantana sifatida tashkil etildi. 1991-yil 31-avgust kuni O‘zbekiston Oliy Kengashida Islom Karimov mamlakatni mustaqil deb e‘lon qilgan edi. Ushbu sana - yetmish yildan ortiq davom etgan Sovet tizimidan chiqib, o‘z davlatchiligini qayta tiklash, o‘z tilida, o‘z tarixida, o‘z yo‘lida davom etish huquqini qo‘lga kiritish hamda eng muhimi milliy o‘zlikni anglash kuni demakdir.

Mustaqillik xalqimizga milliy davlatchilikni rivojlantirish, ona tilimiz, tariximiz va qadriyatlarimizni e‘zozlash, mamlakat taraqqiyot yo‘lini mustaqil belgilash imkonini berdi. Shu bois bayramning mazmuni ozodlik, tinchlik, birlik va bunyodkorlik tushunchalarida namoyon bo‘ladi.

Bayram kunlari mamlakat bo‘ylab madaniy-ma‘rifiy tadbirlar, uchrashuvlar, ko‘rgazmalar, konsertlar va obodonlashtirish tashabbuslari o‘tkaziladi. Ularning asosiy maqsadi tarixiy xotirani mustahkamlash, erishilgan natijalarni qadrlash va yosh avlodda Vatanga daxldorlik tuyg‘usini kuchaytirishdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakat mustaqilligining 35 yilligini nishonlashga bag‘ishlangan tantanavor bayramdagi nutqida 1991-yilda o‘zbek xalqining xohish-irodasi va qat’iyati bilan O‘zbekiston davlat mustaqilligini qo‘lga kiritganini ta’kidladi.

“Aslida buyuk istiqlolimiz ildizlari uch ming yildan ziyod bo‘lgan davlatchilik an‘analarimiz va qadimiy sivilizatsiyamiz tarixiga borib taqaladi. Birinchi va Ikkinchi Renessans davrida Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Mir Alisher Navoiy kabi buyuk allomalarimiz bashariyat tafakkuri xazinasini boyitgan”, – dedi davlat rahbari.



Prezident o‘z so‘zi davomida Sohibqiron Amir Temur bobomizni yodga olib, u barpo etgan davlat adolat va bunyodkorlik timsoli sifatida tarix zarvaraqlaridan munosib o‘rin olganini qayd etdi.

Vatan ozodligi va milliy istiqlol yo‘lida jonini fido qilgan Behbudiy, Munavvarqori, Fitrat, Qodiriy, Cho‘lpon kabi jadid bobolarimizning hurriyat haqidagi orzu-niyatlari bugun Yangi O‘zbekistonda to‘liq ro‘yobga chiqayotgani aytili.

“Mustaqillik, eng avvalo, bizga shonu sharafimizni, muqaddas dinimizni, ona tilimizni, unutilayotgan milliy qadriyatlarimizni qaytarib berdi. Istiqlol tufayli biz o‘zligimizni angladik, nomi hamisha e‘zozda bo‘lgan ota-bobolarimizning munosib vorislari ekanimizni butun dunyoga namoyon etdik. Ushbu hayajonli daqiqalarda bugungi erkin hayot uchun jonini fido qilgan ulug‘ ajdodlarimiz, jadidlar xotirasiga ta‘zim bajo keltiramiz”, - dedi O‘zbekiston yetakchisi.

Mana shu tarixiy sanada o‘tgan 35 yil davomida mustaqilligimizni mustahkamlashga munosib hissa qo‘shgan barcha marhum yurtdoshlarimizning fidokorona mehnati va jasoratini yana bir bor e‘tirof etishni joizligi ta’kidlandi.

Shu jumladan, bayram davomida Birinchi Prezidentimiz, atoqli davlat va siyosat arbobi Islom Abdug‘aniyevich Karimovning yorqin xotirasi ehtirom bilan yod etildi.

Davlat ramzlari va ularga hurmat



Davlat bayrog‘i, gerbi va madhiyasi O‘zbekiston Respublikasi suverenitetining ramzlaridir. Ular xalqning tarixiy xotirasi, orzu-intilishlari va mustaqil davlat sifatidagi qadr-qimmatini ifodalaydi.

Davlat ramzlaridan foydalanishda qonunchilik va belgilangan odob qoidalariga rioya etish zarur. Bayroq toza, butun va munosib joylashtirilgan bo‘lishi, madhiya ijro etilganda esa hurmat saqlanishi kerak.

Tadbirlarni bezashda bayroq ranglaridan did bilan foydalanish, ramzlarni matn yoki boshqa tasvirlar bilan to‘sib qo‘ymaslik, ularning shakli va nisbatlarini o‘zgartirmaslik tavsiya etiladi.

Bayramni mazmunli tashkil etish



Mustaqillik bayramiga bag'ishlangan tadbirlar rasmiy tantana bilan cheklanmasdan, jamoaning kundalik faoliyati va kasbiy vazifalari bilan bog'lanishi maqsadga muvofiq.

Suv xo'jaligi tashkilotlarida soha faxriylari bilan uchrashuvlar, yosh mutaxassislar muloqoti, tarixiy foto va hujjatlar ko'rgazmasi, suvni tejash bo'yicha ochiq darslar va amaliy muloqotlar tashkil etish mumkin.

Tadbirni davlat madhiyasi bilan boshlash, so'ng Mustaqillik kunining tarixiy mazmuni haqida qisqa kirish so'zi berish mumkin. Asosiy qismda sohaning rivojlanish bosqichlari va fidoyi xodimlar faoliyati yoritiladi.

Faxriy xodimlar bilan suhbat, yosh mutaxassislarning chiqishi, qisqa videolavha yoki fotojamlanma dasturga jonlilik baxsh etadi. Yakunda suvni asrash va Vatan taraqqiyotiga munosib hissa qo'shishga chorlovchi umumiy xulosa beriladi.

Tadbir davomiyligi auditoriya va joy sharoitiga mos belgilanadi. Har bir chiqish oldindan tahrir qilinishi, texnik vositalar sinovdan o'tkazilishi va xavfsizlik choralariga rioya etilishi shart.

Suv sohasi va mustaqillik yutuqlari



Suv xo‘jaligi mamlakat oziq-ovqat xavfsizligi, aholi farovonligi va iqtisodiy barqarorligiga xizmat qiladigan muhim tarmoqdir. Mustaqillik yillarida suv infratuzilmasini yangilash, boshqaruvni takomillashtirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha izchil ishlar olib borildi.

Tadbir materiallarida suv omborlari, kanallar, nasos stansiyalari, irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlarida mehnat qilayotgan mutaxassislarning hissasiga alohida e‘tibor qaratish lozim.

Raqamli monitoring, suv hisobini takomillashtirish, energiya samaradorligi va suv tejovchi sug‘orish usullari bugungi islohotlarning amaliy yo‘nalishlaridir. Bu jarayonlar suvdan foydalanish samaradorligini oshirish va kelajak avlodlar uchun resurslarni asrashga qaratilgan.

Jumladan, tadbirda Suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasiga asosan 2030-yilga borib 80% maydonda resurs tejamkor texnologiyalar joriy qilinishi belgilangani, qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘orishda suvni tejaydigan texnologiyalar bilan qamrab olingan yerlarning umumiy maydonini 2 mln gektargacha, shu jumladan tomchilab sug‘orish texnologiyasini 600 ming gektargacha yetkazish belgilangani ta‘kidlanishi mumkin.

Suv va tabiatga munosabatni tubdan o'zgartirish zarur!



Mustaqillikning 35 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan bayram tadbirida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev global iqlim o'zgarishi sharoitida suv va ekologiya masalalari yana-da dolzarb bo'lib borayotganini ham ta'kidladi.

“Shu bois, to'rtinchi milliy dastur suv va tabiatga munosabatni tubdan o'zgartirishga qaratiladi. Kelgusi besh yilda ekin maydonlarida suv tejaydigan texnologiyalar qamrovini 100 foizga olib chiqamiz. Bu – umummilliy marraga aylanadi”.

Davlat rahbari tabiatga munosabat - xalqning madaniyati, davlatning mas'uliyati va taraqqiyotning sifat ko'rsatkichidir.

Shuning uchun mamlakatimizda “Yashil makon” umummilliy harakatini yangi sifat bosqichiga olib chiqish belgilandi. Maktab, bog'cha, shifoxona va ko'p qavatli uylar atrofidagi yashil hududlar jamiyatning daxlsiz boyligi sifatida muhofaza qilinadi. Yaqin yillarda tuman va shahar markazlarida yashillik ko'lamini 30 foizga yetkazish rejalashtirilmoqda.

Suvni asrash bayram madaniyatining bir qismi



Tashqi suv manbalariga bog‘liq mamlakat sifatida O‘zbekiston uchun har qaysi bayram, shu jumladan Mustaqillik bayramini nishonlash davomida tabiatga, suvga ehtiyotkor munosabatga urg‘u berish juda muhim. Suvni isrof qilmaslik, hududlarni ozoda saqlash va chiqindilarni belgilangan joyga tashlash bayram madaniyatining ajralmas qismidir.

Ommaviy tadbirlar o‘tkaziladigan joylarda ichimlik suvidan foydalanish nuqtalarini to‘g‘ri tashkil etish, nosoz jo‘mraklarning oldini olish va bir martalik plastik chiqindilarni kamaytirish tavsiya etiladi.

Targ‘ibot materiallarida suvni tejashga oid sodda, aniq va bajarilishi mumkin bo‘lgan tavsiyalar berilishi kerak. Har bir fuqaro suvni asrash orqali yurt farovonligiga hissa qo‘shishini his qilishi muhim.

Axborot va targ'ibot materiallari

Bayramga bag'ishlangan axborot materiallari tarixiy aniqlik, samimiy ohang va zamonaviy uslubga asoslanishi kerak. Matnlarda tinchlik, birlik, mehnat va mas'uliyat g'oyalari yetakchi o'rin tutadi.

Vizual materiallarda oq fon, davlat bayrog'i ranglari, O'zbekiston tabiati va suv infratuzilmasini aks ettiruvchi sifatli tasvirlardan foydalanish mumkin. Dizayn ortiqcha elementlardan xoli, sarlavha esa qisqa va markazda bo'lishi maqsadga muvofiq.

Ijtimoiy tarmoqlar uchun bir xil mazmunni ayn xil formatlarga moslashtirish lozim: qisqa video, infografika, fotojamlanma, xodim hikoyasi va savol-javob shakli auditoriya e'tiborini yaxshiroq jalb qiladi.

Shu bilan birgalikda, suvni tejashga oid stellajlar, majoziy ma'noga ega obyektlar bunyod etilishi va shu orqali aholining e'tiborini dolzarb masalaga qaratish mumkin.

Tashkiliy eslatmalar va yakun

Bayram tadbirini tayyorlashda mas'ullar ro'yxati, aniq vaqt jadvali, texnik ta'minot, mehmonlarni kutib olish va favqulodda vaziyatlar rejasi oldindan ishlab chiqiladi.

Ochiq maydondagi tadbirlarda ob-havo, ichimlik suvi, tibbiy yordam, elektr xavfsizligi va hududni tadbirdan keyin tozalash masalalariga alohida e'tibor beriladi.

Mustaqillik bayramining asl mazmuni ozodlikni qadrlash, tinchlikni asrash va Vatan ravnaqi uchun mas'uliyat bilan mehnat qilishdir. Suvni tejash va tabiatga ehtiyotkor munosabat esa ushbu mas'uliyatning kundalik ifodasidir.

O'zbekiston Mustaqilligining 35 yilligi barchamizga muborak bo'lsin!